



INVESTITSIYA VA TASHQI SAVDO FAOLIYAT TO‘G‘RISIDAGI  
QONUNCHILIK IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATINING MAQSADI,  
VAZIFALARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Asadov Azizbek Axmadovich**

*O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura  
tinglovchisi*

**Abstract:** Our country puts the protection of the rights and legitimate interests of entrepreneurs in the field of investment and foreign trade activities, including investors and subjects of foreign trade activities, as one of the most fundamental tasks among any legal and Democratic state. This will require further strengthening the activities of state authorities and management bodies working continuously with business entities, ensuring legitimacy in control agencies, radically reducing the interference of state bodies in the activities of entrepreneurs, preventing violations and corruption. Scientific-theoretical analysis of the purpose, tasks and specifics of prosecutor's control over the implementation of legislation in the field of investment and foreign trade activities serves to increase the effectiveness of prosecutor's control in this area.

**Key words:** prosecutorial authorities, prosecutorial supervision, investment, foreign trade, goals and objectives.

**Annotatsiya:** Mamlakatimiz investitsiya va tashqi savdo faoliyati sohasida tadbirkorlar, jumladan investor va tashqi savdo faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni har qanday huquqiy-demokratik davlatlar qatorida o‘z oldiga eng asosiy vazifalardan biri sifatida qo‘yadi. Bu esa, tadbirkorlik subyektlari bilan doimiy ishlovcchi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda nazorat idoralarida qonuniylikni ta‘minlash, tadbirkorlar faoliyatiga davlat organlarining aralashuvini tubdan qisqartirish, huquqbuzarliklar hamda korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish borasidagi faoliyatini yanada kuchaytirishni talab etadi.

Investitsiya va tashqi savdo faoliyati sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining maqsadi, vazifalari va o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ushbu sohada prokuror nazoratining samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** prokuratura organlari, prokuror nazorati, investitsiya, tashqi savdo, maqsad va vazifalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda: “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolish, jumladan, davlat budgeti barcha darajada



mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir"<sup>1</sup>.

Davlat rahbari tomonidan jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash hamda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonunlarning so'zsiz ijro etilishi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish orqali "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" prokuratura organlarining ustuvor vazifasi etib belgilanganligi va bunda: hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini so'zsiz bajarishni, amalga oshirilayotgan islohotlarga to'siq bo'luvchi omillar va tizimli kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etishga asosiy e'tibor qaratish zarurligi alohida qayd etilganligi ham bejizga emas<sup>2</sup>.

Zimmalariga yuklatilgan yuqoridagi dolzarb vazifalarni prokuratura organlari tomonidan to'laqonli bajarish maqsadida davlat boshqaruvini takomillashtirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, hududlarni kompleks rivojlantirish borasidagi islohotlarni amalga oshirish jarayonida mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash choralar ko'rilmoxda.

Bu borada bugungi kunda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, biznes yuritish uchun qulay muhit yaratish, investitsiya oqimini kengaytirish, eksportni rag'batlantirish va tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoyasini ta'minlashga oid tizimli choralar ko'rilmoxda, ko'plab qonun hujjatlari qabul qilinmoqda.

Prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni<sup>3</sup> talabidan kelib chiqqan holda, investitsiya va tashqi savdo faoliyatida sohasidagi qonunchilikning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Rossiyada faoliyat yurituvchi ba'zi huquqshunoslar o'z ilmiy asarlarida mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish eng muhim davlat vazifalaridan biri ekanligini hamda ushbu muammoni hal qilishda prokuratura muhim rol o'ynashi kerakligini ta'kidlaganlar. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Bosh prokurori I.V.Krasnov 2020-yil oktabr oyida Uzoq

<sup>1</sup> Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi // Elektron manba: <https://president.uz/uz/lists/view/187> (murojaat vaqt: 24.095.2023).

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.04.2017 yildagi "Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizasiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to'g'risida"gi PF-5019-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2021 y., 06/21/6252/0617-son.

<sup>3</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son // URL: <https://lex.uz/docs/-106197>



Sharqqa amaliy tashrifi chog‘ida ta’kidlaganidek, investitsiya va tashqi savdo faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish prokuratura faoliyatiga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lib, pirovardida, mamlakat uchun juda muhim hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha umummilliy vazifalarni hal etishga xizmat qiladi.<sup>4</sup>

Prokuratura organlari ushbu sohada qonun ustuvorligini ta’minalash, qonuniylikni mustahkamlash, tadbirkorlarning huquq hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladilar.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, investitsiya va tashqi savdo faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining maqsadi - mazkur sohada qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligi hamda mamlakatda tadbirkorlik subyektlari, ayniqsa investor huquq va erkinliklari hamda davlat qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarining samarali himoyasi ta’minalangan holatga erishishdan iborat.

Mazkur sohalarda prokuror nazoratini amalga oshirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad investitsiya va tashqi savdo sohasidagi faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarida qonunchilik ijrosi qanday darajada amalga oshirilayotganligi, ularning faoliyatiga qonunchilik nuqtayi nazaridan baho berish, tegishli huquqiy qarorlar qabul qilish uchun mikro va makro darajada moliyaviy boshqaruva jarayonining borishi, aniqlangan qonunbuzarliklar to‘g‘risida barcha zarur ma'lumotlarni olish; davlatning investitsiya xavfsizligini va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini huquqiy ta’minalashdan iborat. Bundan tashqari, ushbu nazoratning maqsadlari, shuningdek, qabul qilingan qonun talablari va belgilangan standartlardan chetga chiqish va moddiy resurslarni sarflashning qonuniyligi, samaradorligi va tejamkorligi tamoyillarining buzilishini bartaraf etish choralarini ko‘rish uchun imkon qadar erta bosqichda aniqlashni hisobga olish kerak. Sohadagi prokuror nazoratining maqsadi ayrim hollarda aybdor shaxslarning javobgarlikka tortilishini ta’minalash, ulardan yetkazilgan zararning o‘rnini undirish va kelgusida bunday huquqbuzarliklarning oldini olish yoki kamaytirish choralarini ko‘rishda namoyon bo‘ladi.

Ko‘rib chiqilayotgan investitsiya va tashqi savdo sohasida prokuror nazoratining maqsadi bu borada hal etilgan vazifalarda amalga oshiriladi va bu vazifalarni birma-bir belgilab olish talab etiladi.

Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjalari ijrosi ustidan prokuror nazoratining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

<sup>4</sup> Rossiya Federatsiyasi Bosh prokurori Igor Krasnov Uzoq Sharqqa rasmiy tashrif bilan keldi, 14-oktabr kuni Petropavlovsk-Kamchatskiyga tashrif buyurdi. // URL: <https://epp.genproc.gov.ru/smi/news/genproc/news-1891704/> (murojaat vaqt: 19.05.2023).



- tadbirkorlik subyektlarining davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyat organlari oldidagi investitsiya majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish;
- moliya tizimining barcha sohalari va bo'g'inlarida investitsiyalarning o'sishini kuzatish, ulardan oqilona, samarali va qonuniy foydalanishni ta'minlash;
- barcha tadbirkorlik subyektlarining investitsiya manfaatlariga rioya etilishini nazorat qilish, o'z faoliyati natijalari uchun ularning mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha takliflar kiritish;
- hududlarda investitsiya loyihalari hamda eksport prognozi ko'rsatkichlarining bajarilishi yuzasidan nazorat o'tkazish;
- davlatning investitsiya siyosati samaradorligini oshirishga ko'maklashish;
- eksportyor tadbirkorlik subyektlariga yaratilgan sharoitlarni, ularga berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llanilishini bojxona organlari va transport idoralarida o'rganish;
- import qilinib, turli muammolar sababli ishga tushirilmagan texnologik uskunalarni ishga tushurish;
- erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida joylashtirilgan loyihalarga investitsiyalarni o'zlashtirilishi ahvolini o'rganish, bo borada yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilish va bartaraf etish choralarini ko'rish;
- investitsiya majburiyatlarini talabgor-tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilishi va yangi ish o'rinalarini yaratilishiga, sohaga mavjud muammolar va ularni bartaraf etish ahvolini o'rganish ;
- kichik sanoat zonalarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini qiynab kelayotgan muammolarni o'rganish, ularga amaliy yordam ko'rsatish orqali tadbirkorlik, investitsiya va eksportni qo'llab-quvvatlash ahvolini o'rganish;
- erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini samarali tashkil etish bilan bog'liq qonun hujjatlari ijrosini, asosiy e'tiborni sanoat zonasidagi tadbirkorlik subyektlariga yaratilgan sharoitlar, kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi va qonunchilikka muvofiq imtiyozlar qo'llanilishi ahvolini o'rganish;
- davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinayotgan qaror va huquqiy hujjatlarda investor hamda tashqi savdo faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini cheklovchi, ularning iqtisodiy erkinliklariga to'sqinlik qiluvchi qoidalar, normative hujjatlar va ma'muriy taomillarni aniqlashga qaratgan holda tahlil qilish.

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillar asosida shuni qayd etish mumkinki, muayyan tadbir, reja, harakatlarni bajarish orqali erilishiladigan natijani maqsad deb xulosa qilish mumkin bo'ladi. Vazifa esa, ushbu maqsadga erishish uchun bajarilishi shart bo'lgan aniq chora-tadbirlar va harakatlardir. Bu borada, K.F.Skvortsovning "prokuror nazorati samaradorligi, har qanday huquqiy institutda bo'lgani kabi, oxir-



oqibat maqsadga erishishda aniq natijalarga qarab baholanishi kerak"<sup>5</sup>, degan fikrni ilgari surgan.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, investitsiya va tashqi savdo faoliyat haqidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining maqsadiga nazorat faoliyati oldida turgan vazifalarni bajarish orqali erishiladi. Ya'ni mazkur sohada prokuror nazoratining maqsad va vazifalari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldirib boradi, investor va tashqi savdo subyektlarining huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash, sohada qonun ustuvorligini ta'minlash, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish orqali davlatning investitsiya xavfsizligini va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini huquqiy ta'minlash, shu bilan birga davlatning investitsiya siyosati samaradorligini oshirishga ko'maklashishga xizmat qiladi.

Prokuror nazoratining vazifalari haqida ko'plab huquqshunos olimlar yuridik adabiyotlarda o'zlarining qarashlarini ilgari surishadi. Xususan, B.X.Po'latov "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasida belgilangan O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari prokurorlik nazoratining har bir sohasi doirasida aniq vazifalar orqali amalga oshiriladi. Nazorat sohalarining asosiy vazifalari davlatning oliy hokimiyat va boshqaruv organlari qarorlaridan kelib chiqadi, ular esa O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari, farmoyishlari, ko'rsatmalarini va yo'riqnomalarida o'z aksini topadi"<sup>6</sup>, deb fikr bildirsa, A.V.Palamarchuk, "prokuratura organlarining va prokuror nazoratining vazifasi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat"<sup>7</sup>, degan fikrni ilgari suradi. A.V.Palamarchuk bu borada fikrlarini bayon qilarkan ekan, prokuror nazoratining vazifalarini to'liq ochib bermagan, chunki prokuratura organlarining vazifalari, nafaqat, fuqarolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish, balki, qonuniylikni mustahkamlash, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish va boshqa muhim vazifalardan iborat. Ayrim tadqiqotchilarining fikricha, prokuror nazoratining vazifalari ma'lum bir maqsadlar bilan begilanadi, ular qonun talablari va jamiyatdagi qonuniylik holatidan kelib chiqadi<sup>8</sup>. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda aytish mumkinki, jamiyat rivojlanib borgani sari unda turli xil ijtimoiy munosabatlar shakllanib borishi yoki mavjud ijtimoiy

<sup>5</sup> Скворцова М. Проблемы эффективности прокурорского надзора / под ред. К., 1977. С. 24

<sup>6</sup> Prokuror nazorati: darslik / B.X.Po'latov; mas'ul muharrirlar: T.A.Umarov, A.T.Allamuratov va boshq. – T.: «O'zbekiston», 2009. – B. 54.

<sup>7</sup> Паламарчук А.В. Задачи прокурорского надзора за исполнением законов органами местного самоуправления // Законность. 2014. № 3. – С. 19.

<sup>8</sup> Prokuror nazorati: darslik / B.X.Po'latov; mas'ul muharrirlar: T.A.Umarov, A.T.Allamuratov va boshq. – T.: «O'zbekiston», 2009. – B. 54.



munosabatlarning o'zgarishi, olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, qonunlarga rioya qilishning ahvoli va shu kabi boshqa holatlar prokuratura organlari oldiga bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab beradi.

Bir necha huquqshunos olimlar va tadqiqotchilar, jumladan A.Y.Vinokurova<sup>9</sup>, S.Alekseyev<sup>10</sup>, A.Bryagin<sup>11</sup> va I.Chubenko<sup>12</sup> kabi huquqshunoslар tomonidan prokuror nazoratining vazifalari umumiylashtirilishi maxsus va xususiy turlarga tasniflagan. F.Raximov ham "qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash nuqtai nazardan prokuror nazoratini amalga oshirishdagi vazifalar, shubhasiz, prokuror nazorati maqsadidan kelib chiqishini ta'kidlab, ulanri umumiylashtirish, maxsus va xususiy vazifalarga bo'ladi<sup>13</sup>".

Yuqoridagi fikrlar asosida ta'kidlash mumkinki, iqtisodiy sohaning tarkibiy yo'naliшlaridan biri bo'lgan investitsiya va tashqi savdo faoliyati to'g'risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining vazifalari: umumiylashtirish, maxsus, aniq vazifalarga ajratgan holda tavsiflanadi.

Mualliflarning fikricha, umumiylashtirish (asosiy) vazifalar – bular darajasi va ixtisosligi, amalga oshirilayotgan faoliyat turidan qat'i nazar, barcha prokuratura organlari tomonidan bajariladigan vazifalar bo'lib, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, Konstitutsiyada mustahkamlangan jamiyat va davlat tuzumini har qanday tajovuzlardan muhofaza qilish, aholi orasida huquqiy ongni shakllantirish, fuqarolarning qonunlarga hurmat qilish ruhida tarbiyalash, fuqarolarning huquqlari, qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini muhofaza qilish, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar va tashkilotlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish va boshqa vazifalardan iboratdir.

Prokuror nazorati, yuqorida qayd etilganidek, bir qator sohalarda (tarmoqlarda) amalga oshiriladi. Binobarin, prokuror nazorati oldida turgan umumiylashtirish vazifalar bir vaqtning o'zida ushbu sohalarning har birining vazifalari hisoblanadi. Umumiylashtirish vazifalarni faqat prokuror va nazorat faoliyati natijasida hal qilish mumkin. Yagona prokuror nazoratining har bir yo'naliшhi (tarmog'i) umumiylashtirish vazifalarni hal etishga o'zining "hissasini" qo'shadi. Ushbu hissaning hajmi va mazmuni faqat prokuratura nazoratining ushbu sohasi (tarmoqlari) oldida turgan maxsus vazifalar bilan belgilanadi. Ularning mohiyati umumiylashtirish vazifalardan kelib hisoblanadi.

<sup>9</sup> Винокуров А.Ю. Прокурорский надзор: учебник для вузов. — 3-е изд., пер. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2017. — С. 15.

<sup>10</sup> Алексеев С.Л., Вотчель Н.Р. / Прокурорский надзор: Учебное пособие / под редакцией Ф.Н.Багаутдинова. — Казань: «Информационно-технологический центр АСО», 2014. — С 27-28.

<sup>11</sup> Брягин А.П., Пронякин А.Д., Прокурорский надзор в Российской Федерации: Учебное пособие. — М.: «Изд. центр ЕАОИ», 2007. — С. 16.

<sup>12</sup> Алексеев С.Л., Вотчель Н.Р. / Прокурорский надзор: Учебное пособие / под редакцией Ф.Н.Багаутдинова. — Казань: «Информационно-технологический центр АСО», 2014. — С 27-28.

<sup>13</sup> Raximov F.X. Prokuror nazorati va faoliyat yo'naliшlari: ilmiy-amaliy maqolalar to'plami / yu.f.d. T.A.Umarov umumiylashtirish ostida. — T.: "Noshir" nashriyoti, 2008. — B. 95-98



chiqadi va prokurorning prokuror nazoratining har bir yo'nalishi bo'yicha vakolatlari bilan belgilanadi. Prokuror nazoratining har bir yo'nalishi bo'yicha alohida vazifalar quyidagilarda batafsil ko'rib chiqiladi.

Maxsus vazifalar - prokuror nazoratining muayyan tarmoqlari doirasida ajratib olinadigan aniq faoliyat shakli (yo'naliш, soha) doirasida yechiladigan vazifalar, shuningdek, prokuratura tomonidan amalga oshiriladigan muayyan funksiyadir. Shunday qilib, nazorat faoliyatining maxsus vazifalariga quyidagilar kirdi: 1) tekshirishlar davomida qonun buzilishi holatlarini to'liq aniqlash; 2) qonunlarni buzishda aybdor shaxslarni aniqlash; 3) aniqlangan qonunbuzarliklarni va ularga ko'maklashuvchi holatlarni bartaraf etish, aybdorlarni jazolash va qonun buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha tegishli choralar ko'rish.

Investitsiya va tashqi savdo faoliyati to'g'risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining maxsus vazifalariga quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

tashqi savdo va investitsiya sohalariga oid qonunchilik hujjatlari, Bosh prokuratura hay'ati qarorlari va ish rejalar, Bosh prokuror buyruqlari, farmoyishlari va ko'rsatmalari ijrosini qat'iy ta'minlash;

tashqi savdo va investitsiya sohalarida qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish;

mazkur sohada quyi prokuratura organlari faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish, uslubiy va amaliy ta'minlash;

Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoqlari tomonidan tegishliliги bo'yicha o'z nazorat ostidagi vazirlik, idora va muassasalarda investitsiyalar va tashqi savdo oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan amalga oshirilgan nazorat faoliyatiga doir ma'lumotlarni olish, tahlil qilish va umumlashtirish;

investitsiyalar va tashqi savdo faoliyatini huquqiy himoya qilish sohasida qonuniylik ahvoli va prokuror nazorati amaliyotini tizimli tahlil qilish, huquqbazarliklarni aniqlash va bunga imkon bergen sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

tashqi savdo va investitsiyalar sohalarida qonuniylik ahvoli va prokuror nazorati amaliyotini muntazam tahlil qilish, tizimli kamchiliklar, qonun buzilishi holatlar, shuningdek huquqiy normalarning o'zboshimchalik bilan, subyektiv tarzda, tanlov asosida talqin qilinishi hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda bunga imkon bergen sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

mazkur sohada qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, quyi



prokuraturalarga amaliy yordam ko'rsatish; fuqarolarni qabul qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish;

murojaatlar va boshqa ma'lumotlar, monitoring va tahlillar natijalari asosida, shuningdek prokuratura organlari aralashuvi talab qilinadigan hollarda tekshirishlar o'tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash, aniqlangan qonun buzilishlari yuzasidan choralar ko'rish va boshqalar.

Aniq vazifalar - ko'p sonlilik, nodoimiylilik (vaqtinchalik xarakterga ega bo'ladigan), operativlik, muddatlilik kabi xususiyatlarga ega bo'lib, umumiyligida maxsus vazifalarni amalga oshirish uchun prokuror nazorati amaliyotida yuzaga keladigan ma'lum bir vaziyat, yuqori turuvchi prokuror tomonidan quyi turuvchi prokurorga beriladigan topshiriq, ko'rsatma mazmunidan kelib chiqib belgilanadi<sup>14</sup> ya'ni Bosh prokurorning buyrug'lari hamda rahbariy ko'rsatmalari bilan maxsus va aniq vazifalar belgilab boriladi.

Aniq vazifalarga misol sifatida: tashqi savdoning import yo'nalishida maishiy texnika mahsulotlarini noqonuniy olib kirilishi, unga sharoit yaratib beruvchi shart-sharoitlarni tahlil etish va bartaraf etish, unga qarshi kurashishning samaradorligini kompleks o'rganish, O'zbekiston Respublikasi hududiga maishiy texnika vositalarining noqonuniy kirib kelishining oldini olish hamda sohaga markirovkalash tizimini joriy qilishdagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasini nazorat qilish;

Eksportiyor tadbirkorlik subyektlariga yaratilgan sharoitlarni, ularga berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llanilishini soliq, bojxona, transport idoralarida o'rganish, ularga amaliy yordam ko'rsatish bilan eksport hajmini oshirish choralarini ko'rish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 21.06.2019-yildagi PQ-4363-sodan qarorini, asosiy e'tiborni investitsiya majburiyatlarini talabgor-tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilishi va yangi ish o'rinnari yaratilish ahvolini o'rganish kabi vazifalarni keltirib o'tish mumkin.

Demak, qonunchilik ijrosi yuzasidan prokuror nazoratini amalga oshirishdagi vazifalar prokuror maqsadidan kelib chiqishini inobatga olib, ularni umumiyligida maxsus va xususiy vazifalarga bo'linadi.

Yuqoridagilarni umumiyligida xulosa qilib aytish mumkinki, prokuratura investitsiya va tashqi savdo faoliyati erkin amalga oshirilishi, ushbu soha subyektlari huquqlariga rioya etilishini kafolatlashda, davlat manfaatlarini himoya qilish mexanizmida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, bunday maqom

<sup>14</sup> Iqtisodiy sohada Qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati. Uslubiy qo'llanma. I jilda. 1-jild // y.f.f.d. (PhD) A.B. Komilov, N.A. Azizov va boshqa mualliflar jamoasi. - T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinnbosari E.T. Yuldashevning umumiyligida tahriri ostida. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, 2022. - 380 b.



prokuratura organlariga investitsiya va tashqi savdo faoliyatini ommaviy tartibga solish funksiyasini amalga oshiruvchi organlar va mansabdar shaxslar faoliyatining qonuniyligi ustidan nazorat olib borish imkonini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Скворцова М. Проблемы эффективности прокурорского надзора / под ред. К., 1977. С. 24
2. Паламарчук А.В. Задачи прокурорского надзора за исполнением законов органами местного самоуправления // Законность. 2014. № 3. – С. 19.
3. Prokuror nazorati: darslik / B.X.Po'latov; mas'ul muharrirlar: T.A.Umarov, A.T.Allamuratov va boshq. – Т.: «O'zbekiston», 2009. – В. 54.
4. Винокуров А.Ю. Прокурорский надзор: учебник для вузов. – 3-е изд., пер. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2017. – С. 15.
5. Алексеев С.Л., Вотчель Н.Р. / Прокурорский надзор: Учебное пособие / под редакцией Ф.Н.Багаутдина. – Казань: «Информационно-технологический центр АСО», 2014. – С 27-28.
6. Raximov F.X. Prokuror nazorati va faoliyat yo'naliishlari: ilmiy-amaliy maqolalar to'plami / yu.f.d. T.A.Umarov umumiy tahriri ostida. – Т.: "Noshir" nashriyoti, 2008. – В. 95-98
7. **Iqtisodiy sohada Qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati.** Uslubiy qo'llanma. I jildda. 1-jild // y.f.f.d. (PhD) A.B. Komilov, N.A. Azizov va boshqa mualliflar jamoasi. - Т.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinnbosari E.T. Yuldashevning umumiy tahriri ostida. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, 2022. - 380 b.